

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MA’NAVIY AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Tojiyeva Asila Abdimannon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 1- bosqich talabalari

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolalning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy xislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni talab etadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat jarayonida bolalarning qobiliyati va layoqatlarini har tomonlama rivojlantirish, bolalarda ma’naviy, axloqiy tarbiyani shakllantirish haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar : Rivojlantirish, axloqiy tarbiya, insoniylik, ma’naviy xislat, odob, shakllantirish.

O’zbekistonda bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish, tarbiya qilish va rivojlantirish davlat ta’lim siyosatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Inson ijtimoiy hayotga aralashar ekan, ijtimoiy munosabatlar ta’siriga tushadi. Ijtimoiy munosabatlar o’zgarishi bilan shaxsning ma’naviy qiyofasi ham o’zgaradi. Ya’ni insonning dunyoqarashi, g’oya va ta’savvurlari, jumladan axloqi ham o’zgarib boradi. Har qanday inson ham o’z dunyo qarashi, axloqiy qoidalarini va ular ta’sirida shakllangan odat va ko’nikmalarni shakllantirib borishi bilan birga, aniq ijtimoiy voqealarga, uni o’rab olgan narsa va hodisalarga, yurish turish va muomalalarga maqsadga muvofiq tarzda baho bera oladi. Axloq so’zi – lotincha “myeros” ya’ni moral, mantiq so’zidan kelib chiqib, u hech qayerga qat’iy yozib qo’yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalaniladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni shunchaki o’zlashtiribgina qolmay, turli vaziyatlarda o’zini anashu normalariga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy jixatdan tarbiyalangan insonda barqaror ma’naviy hislatlar shakllangan bo’ladi. Bu hislatlar esa insonni jamiyatda munosib xulq atvorga rag’batlantiradi. O’quvchilarga atrofdagi insonlar xatti- harakatidagi qaysi jihatlari yaxshi – yu, qaysilari yomon ekanligini anglash uchun, axloqiy bilimlarni ongli ravishda o’zlashtirib olishgina yordam beradi. Odob – kishining ko’zga tashlanadigan mulozamati, xulq atvori, muomala – munosabatlari sifatida mavjud bo’lsa, axloq – insonning ichki olami, e’tiqodi, fazilatlarida namayon bo’ladi. Qadimgi faylasuflar, donishmantlar ijodida odob-axloq masalalari asosiy o’rinni egallagan. Ularning fikricha odob – axloq jamiyatning asosiy „poydevori” bo’lgan. Shu tufayli jamiyatning har bir a’zozsining xulq odobiga alohida e’tibor bilan

qarashgan. Islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni Karimda va payg’ambarimiz Muhammad Alayhissalomning hadislarida insoniy axloq odobning barcha qirralari o’z ifodasini topgan. Misol tariqasida quyidagi hadislarini keltirib o’tishimiz mumkin: “Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, axloq-odobni ham yaxshilangizlar” , “Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman” , “Mo’min kishida quyidagi ikki xislat bo’lmasligi kerak : baxillik va axloqsizlik” . Qadimdan ota- bobolarimiz bebaho boylik bo’lmish ilm-u ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson komoloti, ravnaqining eng asosiy sharti deb hisoblaganlar.

Barchaga ma’lumki har bir xalqning o’z afsonaviy qahramonlari, pahlavonlari bo’lgan. Shu manoda xalq og’zaki ijodining noyob durdonasi bo’lmish “ Alpomish” dostoni millatimizning o’zligini namoyon etuvchi, avloddan – avlodga o’tib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir. Bu asarda tarix to’fonlaridan, hayotning mashaqatli sinovlaridan omon chiqib, o’zligini saqlagan yurtimizning matonat , bag’ri kenglik, oliyanoblik, vafo va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarini o’z aksini topgan. Shu tufayli ham “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Alisher Navoiy ijodida ham axloq – odob masalalariga katta ahamiyat berilgan.

“Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog’idir”- deydi mutafakkir Alisher Navoiy o’zining “ Mahbub-ul qulub” asarida odob-axloqqa oid g’oyalarini ilgari surgan. Insonparvarlik g’oyalarini nihoyatda ulug’lagan.

Yosh avlodning axloqiy rivojlanishida, pedagogika fani – tarbiya va ta’limni muhim omil deb hisoblaydi. O’tkazilgan pedagogikaga oid tadqiqotlar natijalariga ko’ra , bolaning ma’naviy shakllanishidagi eng muhim bosqich bu – maktabgacha ta’lim davri hisoblanadi. Aynan shu davrdan boshlab ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim tarbiya ta’sirida insonning axloqiy fazilatlarini shakllana boshlaydi. Bolalarda 6-7 yoshda ijobiy xulq-atvor normalarining barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofidagi insonlar bilan bo’ladigan munosabatlar davomida egallab olgan axloq normalariga tayangan holda ish ko’ra boshlaydi. Shu sababli bolalarga ilk yoshidan boshlab axloqiy tarbiya berib boorish juda muhim hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni axloqiy jiyatdan tarbiyalashning asosiy vazifasi va amalga oshirish vositalari shaxsning muhim ma’naviy sifatlari bo’lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, jamoaviy birgalikda bajariladigan izlanishlarga munosabati, ongli intizom va boshqa fazilatlarini tarkib toptirish axloqiy tarbiya muhim vazifalaridir. Axloqiy tarbiya – tasavurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosda axloqiy e’tiqodni yuksaltirishga ta’sir ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Movlonova. R , To'rayeva . O , Xoliqberdiyev. K, Pedagogika Toshkent -2011
2. Tosheva .N , Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish “ Kamolot” : Buxoro-2022
3. Qodirova .F ,Toshpo'latova. Sh , Kayumova. N , Azamova. N Maktabgacha pedagogika Darslik Tafakkur nashriyoti Toshkent – 2019
4. Rasulov. Y , Nurmatova O Pedagogika fanidan o'quv qo'llanma Toshkent- 2011
5. O'yin orqali ta'lim olish metodik qo'llanma Toshkent- 2020